

BOLALAR TARBIYASIDA OILANING ROLI

Qashqadaryo viloyati

Kasbi tumani 16 - umumumiy

o'rta ta'lif maktabining boshlang'ich sinf o'qtuvchisi

Allamova Lola

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o'quvchilarni dars jarayonlarida o'zlashtirishi, tarbiyasida ota - onalarning roli, va oila maktab hamkorligi turli kamchiliklarni bartaraf etish haqida tafsiyalar berilgan.*

Kalit so`zlar : *Oila muhiti, ta'lif tarbiya, odob - axloq, ota - ona va ustoz hamkorlik.*

Oila muhiti, ta'lif tarbiya, odob - axloq, ota - ona va ustoz hamkorlik.

Bugungi kunda bolalarni ilmli odobli qilib tarbiyalash ota - onaning burchidir. Shu bilan birga bunga ustoz tarbiyachilar ham mas`uldirilar.

Farzandlar asosan tarbiyani oiladan oladilar. Oilada tarbiya izchil va tartibli amalga oshirish uchun oila muhiti muhim rol o'yndaydi. Bolalarni ahloqiy - ma'naviy qiyofasi poydevori oilada shakllanadi.

Xalqimiz azaldan "Bola boshidan, nihol yoshidan" , deb bejiz aytmagan.

Bolalarni tarbiyalashni yoshlikdan oiladan boshlash kerak. Buning uchun oila yosh bola davridan tarbiya berib o`rnak namuna bo`lib borishlari lozim. Vaqtida tarbiya o`z o`rnida berilmasa ota-onalar bolalar katta bo`lganlarida qiyinchilik, to`siqlarga duch keladilar.

"Bola aziz, odobi undan aziz" - deb bekorga aytishmagan.

Tarbiya - axloq , odobning boshlanishi oilada, ota - onalar, bobo - buvilar, aka - uka, qarindosh - urug` va qo`ni - qo`shnilarning xulqi muomalasi yosh bolalaming xulqi odobli bo`lishida muhim ahamiyatga ega.

Oilada ota - ona farzandlarini haddan ortiq yaxshi ko`rishi va ularning ko`ngliga qarab tarbiyalash , oiladagi axloqiy xulq normalariga loqayd munosabatda bo`lishi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qilibgina qolmay, kelakjada nojo`ya ishlar sodir etishiga olib keladi.

Bola ruhiyati juda nozik bo'ladi. Ko'rgan eshitgan narsalariga ro`yi - rosti ishonadi. Ayniqsa, ota - onasining hayotida o`zgacha ahamiyat kasb etayotgan voqeliklarni muhim deb biladi.

Ota - ona borlig'i, haqiqati. Ota - onalar ertadan kechgacha ishga, o'z tashvishlari bilan ovora, uyda o'tirganlari esa televizion serialarga bog'lanib qolgan. Ayniqsa onalar o'sha olamda yashaydi. Bolalar ham ular bilan birga, yoshiga munosib bo'limgan kino serialarni ko'radi. Ota - ona bilan ularning muhokomasida ishtirot

etadi. Bu omillar uning rivojlanishida salbiy ta'sir etibgina qolmasdan balki asabiy, betoqat, bir joyga o'tira olmaydigan bolalarni yetishtirmoqda.

Ho'sh bolalarni kimlar tarbiyalamoqda, seriallar yoki telefon orqali har xil jangari filmlar ko'rib, ongiga ruhiyatiga ta'sir qilayotganini jimgina kuzatib turgan ota - onalarni?

Ustozlar dars jarayonida ta'lifiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, uni oqibatlarni tushuntirishga harakat qiladilar buning uchun maktabda o'qituvchi ota - ona hamkorligi yo'lga qo'yilgan.

Ota – onalar har doim ham ustozlarni tushunavermaydilar. Bola haq deb oldiga tushib ustozlarga tarbiya berishga halaqit beradilar.

Bularning barchasini bola ko'rib turibdi. Buning oqibatida bolalarda noto'g'ri tarbiya ustozlarga behurmatsizlik oilada shakllanmoqda. Ota – onalar bu masalada juda sergak bo'lislari lozim.

Fikrimizni ilmiy jihatdan jihatdan davom etirsak. Bolalarning bosh miyasi xujayralari va ularning xarakter xususiyatlarini shakllanishi, 4-5 yoshdan boshlab 14-15 yoshgacha davom etadi. Bu davrda yoshiga mos filmlar ko'rsa, namunali tarbiyalı kitoblar o'qisa, unga nisbatan yaxshi muomala va munosabat bo'linsa, sog'lom fikrlar bilan ulg'ayadi.

Har bir ota ona farzandini o'zbek millatiga xos qilib, or-nomusli, mehr oqibatli, iymonli, ilmli qilib tarbiyalashi uchun o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, qo'liga kitob olib o'qishi, birga dars qilishi fikr almashishi lozim.

Har bir ota – ona farzandini kelajagi uchun har kun har soatni g'animat bilishi kerak. Zero bugungi sog'lom harakat ertaga kelajak bo'ladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Shodiyeva Boshlang'ich ta'llim jarayonida inovatsion yondashuv Toshkent 2014 - yil.

2. Xoliqova M Odobnomal 3-sinf Toshkent 2014 - yil.